

**OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILI
MASHG'ULOTLARIDA LOYIHA METODINING O'RNI**

*S.S.Mengliyeva O'zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola harbiy ta'lif muassasalarida ingliz tili mashg'ulotlar davomida professor-o'qituvchilar tomonidan qo'llanayotgan metodlarning afzal tomonlari va kamchiliklariga bag'ishlangan bo'lib muallif tomonidan takomillashgan Loyiha metodining tariflari keng yoritilgan. Ushbu metodlar yordamida kursantlar bilimlarini kengaytirish yuzasidan takliflar muallif tomonidan ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, pedagogik mahorat, loyiha metodi, chet tilni o'zlashtirish ko'nikmali.

Аннотация: данная статья посвящена преимуществам и недостаткам методов, применяемых преподавателями английского языка в военно-учебных заведениях во время обучения. Автор выдвигает предложения по расширению знаний курсантов с помощью этих методов.

Ключевые слова: интеграция, педагогическое мастерство, методы проектирования и локации, навыки владения иностранным языком.

Annotation: this article is devoted to the advantages and disadvantages of the methods used by professors and teachers during English classes in military educational institutions, and Project method was improved by the author are widely covered. Proposals to expand the knowledge of cadets using these methods were put forward by the author.

Keywords: integration, pedagogical skills, project and localization techniques, skills for mastering a foreign language.

Hozirigi kunda zamon bilan hamnafas bo'lib yashash har birimizning asosiy vazifalarimizdan biriga aylanib ulgurgan bir davrda, shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot kommunikatsiya texnologiyalarini, ishlab chiqarishning jahon andozalaridan olingan yangi texnika va texnoliyalarini hamda ta'lif sohasini xalqaro tajriba asosidagi yangi pedagogik texnologiyalarini o'r ganib amaliyatga tatbiq etishda, kursantlarning xorijiy tillarni bilishi va uni mukammal o'zlashtirishlari uchun oliy harbiy ta'lif muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglarimizning xorijiy tillarni xalqaro tajribalarga asoslangan holda o'qitishning quyidagi samarali uslublarini yoritib beramiz.

O'qituvchi o'zining pedagogik mahoratiga tayangan holda kursantlarga ingliz tilini o'rgatishdagi muammoni hal qilish maqsadida dunyodagi taklif qilinayotgan

barcha uslublarni o'rganib chiqish kerak bo'ladi. Ko'pincha pedagoglarimiz ushbu uslublarni internet yoki yozma o'quv uslubiy qo'llanmalardan foydalanib mustaqil ravishda qo'llashadi. Biroq, guruh bo'lib mashg'ulot olib borish samaraliroq hisoblanadi.

Mustaqil diyorimizda chet tilini o'rganishni yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Prezidentining bir qator farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan bo'lib ular Respublikamiz miqqosida yoshlarni ona tilimiz bilan birga chet tillarni ham mukammal o'rganishga undaydi. Shu bois, barcha Oliy o'quv yurtlarida chet tillarini o'qitish va o'rganishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda.

Hozirgi kunda dunyo mamlakatlarining o'zaro aloqalari integratsiya jarayonlari tezlashayotgan davrda xalqaro munosabatlar va aloqalar yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Voqeа va hodisalarining tez va shiddat bilan o'zgarishi ham zamonni murakkablashtirmoqda. Ayni paytda yer yuzining qaysi chekkasida qanday voqeа yuz bermasin, odamzod bu haqda dunyoning boshqa chekkasida turib zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas. Har bir ijtimoiy hodisaning ijobjiy va salbiy tomoni bo'lgani kabi, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas.

Kursantlarga harbiy terminlarni o'qitish jarayonida Loyiha metodidan foydalanish uchun quydagi usullar tavsiya etiladi. “**My lovely vocabulary notebooks**” lug'at daftarlari tutish loyihasini o'quv yili davomida olib borish. Ushbu loyihaning maqsadi kursantlarning harbiy sohaga oid lug'at boyligini oshirish, kreativ erkin ish faoliyatini ta'minlash, passiv kursantlarni faol kursantlarga aylantirish.

Yetuk ofitser kadrlarni tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarda kommunikativ metodning tarmoqlari bo'lgan – loyihalash, masofaviy ta'lim, aqliy hujum, guruhli fikrlash, galereya, rotatsiya, dumaloq stol, Keys study, Lokatsiya, Jigsaw 1,2 kabi interfaol usullardan foydalanish, kichik guruh musobaqalari, internet yangiliklari va ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash maqsadga muvofiqidi.

Hozirgi vaqtida pedagogik tadqiqotlarda modellashtirish usuli keng qo'llaniladi. Modellashtirish-bu modellarni yaratish va tadqiq qilish usuli. Modelni o'rganish sizga yangi bilimlarni, ob'ekt haqida yangi yaxlit ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Modelning muhim xususiyatlari: vizualizatsiya, mavhumlik, ilmiy tasavvur va tasavvur elementi, analogiyani qurilishning mantiqiy usuli sifatida ishlatish qo'llanadi. Boshqacha qilib aytganda, loyiha vizual shaklda ifodalangan farazdir. Modelning muhim xususiyati unda ijodiy tasavvurning mavjudligi. Masalan, ta'lim jarayonini modellashtirish shakllari tushunchalar, paradigmalar, turli senariylar, kognitiv o'yinlar va boshqalar bo'lishi mumkin. Modelni yaratish jarayoni juda mashaqqatli, tadqiqotchi bir necha bosqichlardan o'tganga o'xshaydi.

Birinchisi, tadqiqotchini qiziqtirgan hodisa bilan bog‘liq tajribani sinchkovlik bilan o‘rganish, ushbu tajribani tahlil qilish va umumlashtirish va kelajakdagi model asosida faraz yaratish.

Ikkinchisi-tadqiqot dasturini tuzish, ishlab chiqilgan dasturga muvofiq amaliy faoliyatni tashkil etish, unga amaliyot tomonidan taklif qilingan tuzatishlar kiritish, modelning asosi sifatida olingan dastlabki tadqiqot gipotezasini aniqlashtirish.

Uchinchisi-modelning yakuniy versiyasini yaratish. Agar ikkinchi bosqichda tadqiqotchi qurilayotgan hodisaning turli xil variantlarini taklif qilsa, uchinchi bosqichda u ushbu variantlar asosida amalga oshirmoqchi bo‘lgan jarayonning (yoki loyihaning) yakuniy namunasini yaratadi. Pedagogikada modellashtirish muhim didaktik muammolarni hal qilishda muvaffaqiyatlari qo‘llaniladi. Masalan, tadqiqotchi o‘qituvchi modellarni ishlab chiqishi mumkin: o‘quv jarayonining tuzilishini optimallashtirish, kursantlarning shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv bo‘lib dars mashg‘ulotlarni samarali qilib olib borishga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda qilib shuni aytish mumkinki, olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar natijasida ta’lim va xususan chet tili sohasida biz erishayotgan muvaffaqiyatlar “o‘zbek modeli”ning qisqa davrda berayotgan muhim samaralari sifatida namoyon bo‘lmoqda. Eng xolis baho-chetdan berilgan bahodir. Ana shunday e’tiroflardan biri, mamlakatimiz ta’lim tizimini rivojlantirish darajasi bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlarni egallagani bilan ham faxrlidir. Bu esa davlatimiz rahbariyati tomonidan olib borilayotgan izchil islohotlarning, ta’lim-tarbiyaga qaratilayotgan yuksak e’tiborning amaldagi ifodasidir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, biz ta’lim- tarbiya berib kelayotgan professional, yosh mutaxassis kadrlarimizning zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni mukammal bilishlari hozirgi davrning muhim talabi hisoblanadi. Zero til – inson ongingin maxsuli bo‘lib, inson tafakkuri va dunyoqarashini ifodalovchi vosita sanaladi. Shuningdek kelajakda yosh kadrlarimizni Vatan ravnaqiga munosib hissa qo‘shishlarida ham asosiy mezon sifatida xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Булычёва, Маргарита Фаритвона, and Динара Талатовна Зайнутдинова. "К вопросу о методических рекомендациях по работе с авторской песней." *Science and Education* 4.3 (2023): 735-747.
2. Bulichyova, Margarita. "METHODOLOGICAL RECOMMENDATIONS FOR WORKING WITH AUTHOR'S SONG." *Modern Science and Research* 2.3 (2023): 256-260.
3. Булычёва, М. Ф. "ЧЕТЫРЕ ПАРАМЕТРА КОММУНИКАЦИИ." *ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-КИСМ*: 42.

4. Булычёва М. Ф. МЕТОД ПРОЕКТНОГО ОБУЧЕНИЯ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА //Материалы Международной научно-практической онлайн конференции «Современные технологии в преподавании языков в дистанционном формате: международный опыт проблемы и перспективы» включают доклады и выступления участников конференции–доцентов, исследователей, педагогов с большим стажем. – С. 21.
5. АТАЕВА, Рануша Рашидовна. "ТИПОЛОГИЯ ПОЛИВЕРШИННЫХ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ГНЕЗД СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА." *Иностранные языки в Узбекистане* 4 (2018): 29-37.
6. Атаева, Р. Р. "ТИПЫ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ГНЕЗД В РУССКОМ ЯЗЫКЕ." *Innovative Development in Educational Activities* 2(19) (2023): 313–319.
7. Атаева, Р. Р. "ВОПРОСУ О ПОЛИВЕРШИННЫХ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ГНЕЗДАХ РУССКОМ ЯЗЫКЕ." *XIV Виноградовские чтения*. 2018.
8. Атаева, Р. Р. "Роль эпистолярного жанра в функционировании любовного этикета и формировании любовного лексикона рубежа XVIII/XIX вв./Социально-гуманитарные науки в системе образования." Том 1: 6-13.
9. MENGLIEVA, Sunbula Savranbekovna. "Effective Methods of Teaching Military Terminology Cadets by the Project Method." *Academia Science Publishing* (2022).
10. Mengliyeva, S. S. "INGLIZ TILI DARSLARIDA HARBIY TERMINLARNI O'QITISH." *Ta'lim fidoyilari*, (2022): 246–250.
11. Менглиева, Сунбула Савранбековна. "ЎЗБЕК-ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДА ҲАРБИЙ СОҲАГА ОИД ТЕРМИНЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ." *Academic research in educational sciences* 2.5 (2021): 673-677.
12. Mengliyeva, S. "MA'LUM SOHAGA OID TERMINLARNING LINGVISTIK O 'ZIGA XOSLIGI." *TADQIQOTLAR* 26.1 (2023): 27-33.
13. Менглиева, Сунбула. "Increasing the professional competence of cadets through the method of projects." *Общество и инновации* 3.10/S (2022): 296-300.
14. Mengliyeva, S.S. (2023). "SOHAVIY TERMINLARNING LISONIY XUSUSIYATLARI". *Innovative Development in Educational Activities*, 2(19), 293-300.
15. Rashidova, Munavvar Xaydarovna, and Dilnoza Berdimurotovna Namozova. "Improving learning through scaffolding." *Educational research in universal sciences* 2.4 (2023): 530-534.
16. Berdimurotovna, N. D. (2021). Difficulties cadets face while practicing listening and the ways of eliminating them. *International Journal of Research and Development*, 6(5), 36-38.

- 17.Berdimurotovna, Namozova Dilnoza. "The role and place of English in international communication." *Chief Editor* (2020).
- 18.Намозова, Дилноза Бердимуротовна. "Peculiarities of phonetic competence development in conditions of artificial multilingualism." *инновации в педагогике и психологии* 4.1 (2021).
- 19.Namozova, D. B. "Phonetic competence development." *ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ:* 56.
- 20.Rashidova, Munavvar Xaydarovna. "Recommendations on the use of scaffolding technology in English classes." *Science and education* 3.9 (2022): 459-461.
- 21.Akhmedov, Doniyor A., et al. "Simulation of the effect of turning steering wheel intensity on the vehicle stability." *International journal of recent technology and engineering (IJRTE)* 9.2 (2020): 242-247.
- 22.Rashidova , M. X. (2023). INSTRUCTIONAL SCAFFOLDING TO IMPROVE LEARNING. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 135–140. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1002>
- 23.Rashidova, Munavvar Xaydarovna. "The importance of oral communicative tasks in developing communicative competence." *Science and education* 4.2 (2023): 1033-1038.
- 24.Раширова, Мунаввар Хайдаровна. "Из истории развития скраффолдинга." *International conferences*. Vol. 1. No. 16. 2022.
- 25.Xaydarovna, Rashidova Munavvar. "On linguistic competence as the component of communicative competence." *EPRA International Journal of multidisciplinary Research* 7.3 (2021): 165-167.